

**Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi  
Axborot-bibliografiya xizmati**

*Betakror ovoz sohibasi Habiba Oxunova  
tavalludining 80 yilligiga*

# **"Bulbulnafas xofiza"**

**Tavsiya ro'yxati**



***Andijon-2022***

---

## *So'z boshi*

---

*Allalar a ytdim sizga,  
Olam-olam ma'no tuyarsiz.  
Alla aytib dunyodan o'tgan  
Habibangiz eslab qo'yarsiz*

Milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va, ayni paytda, yangi buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig'idir.

Hofizlik san'ati xonandalikning eng yuqori darajasi sifatida bir qator talab, bilim hamda amaliy unsurlarni o'zida mujassam etadi. Albatta birlamchi jarayon bu – ovozdir. Ya'ni, ijro mahorati, so'z talaffuzi, ohang tarannumi, meros va ijodiy munosabat. Buning zaminida esa o'zbek amaliy san'atida eng muhim hisoblangan omil ustoz-shogird an'anasi yotadi. Ustoz-shogird an'anasi negizi esa, ilm o'rganish demakdir va unda bir qator saboq mezonlarini o'tash taqozo etiladi.

O'zbek qo'shiqchilik san'ati o'zining betakror taraqqiyot yo'li, mustahkam an'analariga ega. O'zbek qo'shiqchilik san'ati ravnaqi uchun salmoqli hissa qo'shgan fidoyi musiqa ustalarining ijodiy faoliyati, yorqin xotirasi doimo xalqimiz qalbida.

San'atimiz faxri bo'lган Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Saodat Qobulova, Gavhar Rahimova, Kommuna Ismoilova, Mehri Abdullaeva, Berta Davidova, Habiba Oxunova singari ko'plab betakror san'at sohiblari yaratgan milliy qo'shiqlarni elimiz hali hanuz sevib tinglashadi. Ular madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ular yaratgan san'at va mahorat maktabini o'rganish va yosh avlodga yetkazish bizning burchimizdir.



## *Ilk qadamlar, yutuqlar*

---

Betakror ovoz, noyob qobiliyat egasi Habiba Oxunova Farg'ona vodiysida - Andijon viloyatining Asaka tumanida 1943 yil 10 yanvarda xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Yosh Habibaning san'atga bo'lgan havasi qizaloqligidan boshlangan edi. U tumandagi 56-maktabda o'qib yurgan davridayoq bayramlarga bag'ishlab utkaziladigan turli tadbirlarda faol qatnashib, ustozlar diqqatini jalg etdi. Viloyat ko'rik-tanlovlarida ishtirok etib, o'zining chiroyli, go'zal va jarangdor ovozi bilan faxrli o'rirlarni qo'lga kiritadi. Uning birinchi ustozi mashhur bastakor va sozanda, o'nlab yosh iste'dodlarni katta sahnaga olib chiqqan G'ulomjon Ro'ziboev bo'lib, uzoqni ko'ra olgan bu zakovat sohibi Habibaga mehr bilan o'zining ilk saboqlarini berdi. Ustozning professional mahorat darslari o'z samarasini berib, shirali ovoz sohibi ariyalarni ham kuylay boshladи.

1956 yilning bahorida Andijon shahrida xalq teatrining ko'rigi o'tkaziladi va tanlovda ishtirok etish baxtiga sazovor bo'lgan Habiba dramadagi obrazni oliy darajada ijro etib, buyuk san'atkor, Andijon teatrining bosh rejissyori Abbos Bakirovning nazariga tushishga muyassar bo'ladi. Natijada, endigina o'n olti bahorni qarshilagan bug'doyrang go'zal qiz teatr jamoasiga ishga qabul kilinadi. Bu uning hayotidagi muhim voqeа, san'at olamiga qo'ygan ilk qadami edi.

San'atdagi faoliyatini endigina boshlagan Habiba pardozzxonada o'tirib, "Nurxon" musiqali dramasidagi "Bizning ayvon sizning ayvon emasmu?" deya boshlanuvchi ariyani hirgoyi qilayotganda ustoz Abbos Bakirov bu sehrli ovozni eshitib qoladi va uni ohirigacha tinglab, jamoada yangi bir hushovoz, sahna talablariga mos yosh aktyor paydo bo'lganiga amin bo'ladi va unga asarlardagi asosiy obrazlarni ishonib topshiradi. Shu bilan sahna mashg'ulotlarida yosh Habibaga yuksak e'tibor bilan qaraydi. Shunday qilib "Vatan ishq'i" asaridagi Zulfiya obrazi orqali Habiba Andijon teatri sahnasiga ilk qadamini qo'ydi. Keyinchalik, bir qator yangi obrazlarni mahorat bilan talqin etib, el nazariga tushdi.



Habiba endigina 20 yoshga to'lgan bo'lishiga qaramay, allaqachon tanilib ulgurgan, nomi ulug' san'atkorlar qatorida umid bilan tilga olinardi. Shu sabab, uni Namangan teatriga ishga taklif etishdi. Bu qutlug' dargohda ham o'z davrining tilga tushgan san'atkorlari ko'p bo'lib, bu taklif unga ham sharaf, ham mas'uliyat edi. Bu joyda Mukarrama Azizova, Muhriddin Mansurov, Karimjon Mansurov, Sobir Rahmonov, Mamatxon Ubaydullaev, Mahmudjon Isomiddinov, Onaxon Tojiboeva, Tursunoy Mamedova, Kamoliddin Rahimov, Turdali Sa'dullaev, Rustam Hamrokulov singari el ardog'idagi aktyorlar bilan yonma-yon ijod qildi. Habiba bu dargohda o'zbek teatr san'atining oltin hazinasidan joy olgan Layli, Nurxon, Kumush, Barchinoy kabi o'nlab obrazlarni yaratibgina qolmay, jahon adabiyotining durdonasi, asarlari, jumladan, "Otello" tragediyasidagi Desdemona, Ofeliya siymolarini ham zo'r mahorat bilan ijro etib, minglab muhlislarning olqish va e'tirofiga musharraf bo'ldi.



Habiba Oxunova faqat sahna asarlaridagi timsollarni o'ziga xos tarzda yaratish bilangina cheklanmay, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati rivojiga ham ulkan xissa qo'shdi. Uning yoqimli, xushmanzur, sehrli ovozi shoir va bastakorlar e'tiborini tortdi. Natijada, o'zaro ijodiy hamkorlik yaxshi samara berib, o'nlab unutilmas qo'shiqlar dunyoga keldi.

## "Alla"ning sehri

Dunyoda ona allasidan ulug'roq qo'shiq bo'lmasa kerak. "Alla" mehrdan yaralgan orombaxsh ohang. "Alla" onaning bolaga dardu nolasi. "Alla" onalarning bolalarga atalgan bosh va shoh o'lmas asaridir. "Alla" mehr qo'shig'idir. "Alla" bolalarning ma'naviy ozuqasi.

Chunki ne-ne orzu-umidlar bilan dunyoga kelgan chaqaloqni bag'rige bosib, beshik tebratib, yurak tubidan chiqqan nido og'ushida alla aytgan onalar



farzandining baxtini tilab, bu sirli qo'shiqni yaxshi niyat bilan kuylaydilar. Habiba Oxunova ijrosidagi alla esa o'zbekning har bir xonadoniga kirib borgan :

*Alla aytay, jonim bolam, qulog solgin, alla,  
Shirin allam tinglab asta, uhlab qolgin, alla.  
Yuzlaringga tomgan suvga xayron bo'lma, alla-yo,  
Bahtimga sen katta bo'lgin, hazon bo'lma, alla..  
Istiqloling porloq sening, jajjiginam, alla-yo,  
Bahtimga sen katta bo'lgin, hazon bo'lma, alla..  
Syovganimdan yodgorimsan, oltin kuzim, alla-yo,  
Men sho'rlikday to'kilmagin, ko'rар ko'zim, alla.  
Alla, alla, alla-yo, alla...*



Habiba Ohunovanning “Alla” qo'shig'i o'zbek millatining orombaxsh musikiyma'naviy boyligidir. Alla chegara bilmaydi. Habiba Oxunovaning “Alla”si allaqachon chet ellardagi vatandoshlarimiz xonadonlariga xam kirib borgan. “

O'zining mahzun “Alla”si bilan yuraklarni zir titratgan, onalarimizning orzu-umidlarini aniq ijro orqali tinglovchilarga yetkaza olgan noyob ovoz sohibasi Habibaxon Oxunova edi.

### ***Yuksak parvoz***



Habiba Oxunova o'zining go'zal qo'shiqlari, teatr va kino san'atida qaytarilmas obrazlari orqali san'at xazinasidan xalkimizga chirolyi guldasta taqdim etdiki, bu guldasta o'zining turfa gullari, xushbo'y atri bilan dillarni yayratib, qalblarga hanuzgacha orom bahsh etmokda.



Izlanishlarini davom ettirar ekan, Habiba Oxunova, albatta, bu kasb oson emasligini ham sezardi U “Tohir va Zuhra”da Zuhra, “Layli va Majnun”da Layli, “Farhod va Shirin”da Shirin, “Yusuf va Zulayho”da Zulayxo obrazini o'ziga hos talqin, zo'r mahorat bilan ijro etdi. “Boy ila xizmatchi” dramasidagi Jamila, “Gulsara”dagi Gulsara obrazlarida qahramonning haqiqiy ruhiy iztiroblarini, inson qismati tasvirlarini tomoshabinga ko'rsata oldi. Habiba opaning yuksak iqtidorini milliy dramaturgiyadagina emas, balki, Ovrupo asarlarida ham kuzatish mumkin. U Shillerning “Qaroqchilar” asaridagi Amaliya rolini mahorat bilan o'ynagan.

Habiba Oxunovaning Navoiy teatrining san'at shinavandalari o'rtasida nufuzi va obro'sini oshirishdagi xizmatlari tahsinga loyiq. U nafaqat aktyor sifatida, balki qo'shiqchilik borasida ham yuksak cho'qqilarga erishdi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bu fidoyi san'atkor o'z davrining teatr sohasidagi chinakam qahramoni, bugungi til bilan aytganda, yulduzi edi. Habiba Oxunova o'zining san'atga bahshida umri davomida juda sermahsul va barakali, boshqalarga ibratli ijod yo'lini bosib o'tdi.

Habiba Oxunova lirik-dramatik obrazlarning mohir ijrochisi bo'lib, uning ijodi qahramonning ruhiy holatini, alam va o'kinch hislari, iztiroblarini tomoshabinga dramatik o'rtanishlarda, chuqur insoniy dard bilan yetkazib berishi bilan ajralib turadi. Uning “Alla”, “Ko'rmagan bo'lsam seni”, “Ko'rkmam Vatanim”, “Nay navosi”, “Baro yigit”, “O'zing”, “Nay deb” singari qo'shiqlari, “Ushshoq”, “Taronai bayot” maqom yo'llari el orasida mashhur.

Bundan tashqari, “Ko'ngil”, “Odob bilan”, “Sabo bilan”, “Oshnoliking”, ayniqsa, musiqiy ariyalardan - “Layli va Majnun” asaridagi Layli ariyasi, “Nurxon” dagi “Ey sabo” ariyasi va “Farzand deb” dagi “Farzand allasi” ariyalari tinglovchilarni xayajonga soladi. Bu ariyalarda Habiba Oxunovaning noyob iste'dodi, qo'shiqchilik san'ati, musiqa va matnni his etish mahorati, butun qalb go'zalligi yorqin namoyon bo'lgan. Bu muvaffakiyatlarga erishishda o'sha davrdagi Navoiy nomli viloyat musiqali drama va komediya teatri simfonik orkestr bosh dirijyori ustoz Yashin To'lanovich Umrzokov, san'at arbobi, professor, bosh rejissyor Karim Yo'ldoshevlarning xizmatlari bekiyos bo'lgan.



Habiba Oxunova o'zining baland avjli, yoqimli, mayin ovozi bilan mashhur xonanda sifatida ham millionlab muhlislar, san'at shinavandalari orasida xozirga qadar e'zoz va ehtiromga sazovor bo'lib kelmokda. Bu ham bo'lsa san'atkorning insonlar qalbidan chuqur joy olganidan dalolatdir. Qo'shik shaydolari qalbidan joy olgan "Alla", "Sabo bilan", "Oshnoliging", "Namangan" kabi qo'shiqlar go'yo Habiba Oxunova uchun yozilgandek, yoki Habiba Oxunova shu qo'shiqlarni kuylash uchun yaralgandek tuyulardi. Chunki, u ijro etgan qo'shiqni kayta ijro etishning imkoniy yo'k, baribir u kabi maromiga yetkazib bo'lmaydi.

### *Istedodga ta'zim*



Habiba Oxunova bor kuch va mahoratini, butun umrini san'atga bag'ishladi. U o'zbek milliy ijro yo'lining yangi maktabini ochgan san'atkor. Toza nafas, toza parda, xaqiqiy milliy ohang bor edi.

Habiba Oxunovaning o'zbek qo'shiqchiligi va teatr san'ati sohasidagi xizmatlari xukumatimiz tomonidan munosib baholanib, 1975 yilda "O'zbekiston xalq artisti" unvoni bilan taqdirlandi.

San'atkorning qoldirgan ma'naviy hazina ham teatr oltin fondidan joy olgan. Layli, Shirin, Nurhon, Guli, Kumush, Gulsara, Barchinoy singari milliy obrazlar, "Otello" asaridagi Dezdemona, Ofeliya siymolari takrorlanmas, o'ziga xos mahorat bilan ijro etilgan.

Habiba Oxunova Namangan teatrida eng yetakchi aktrisa edi. U teatrini sevardi. Namanganga qattiq ko'ngil bog'lagandi.

Habiba Oxunova sehrli, yoqimli, xush ovozi bilan dard ahdini o'ziga rom eta olgan takrorlanmas, buyuk iste'dod egasidir. U ko'ngli toza, ishonuvchan, soddadil bo'lgani uchun hayotda ko'p qoqilar edi. Shuning uchun qo'shiqlari nolalarga to'la edi.

Habiba Oxunova teatrga kelgan kunidanoq sahnaga chiqqan tug'ma talant soxibasi sifatida o'zining go'zal qo'shiqlari va yaratgan obrazlari bilan abadiyatga muhrlab qo'ydi. Xalqimizning eng suyukli san'atkorlaridan biri



Habiba Oxunova edi desak hato qilmaymiz. Vafot etganiga salkam chorak asr bo'lganiga qaramay u ijro etgan qo'shiqlar hanuzgacha yuragimizda jaranglab yangrab turadi.

Betakror ovoz sohibasi, bulbul nafas xofiza Habiba Oxunova vafot etganiga salkam chorak asr bo'lganiga qaramay u ijro etgan qo'shiqlar hanuzgacha xalqning yuragida jaranglab yangrab turadi.

### **HAYOTIDAGI MUHIM SANALARI**

- \* 10.01.1943- yili Asaka shahrida tug'ilgan
- \* 1975 - yili O'zbekiston xalq artisti
- \* 1994- yili xonanda (lirik dramatik soprano)
- \* 1959-63- yillar Andijon teatridda
- \* 1963-94 - yillar Namangan teatrlarida ishlagan

### **HABIBA OXUNOVA MUSIKIY DRAMADAGI KUYLAGAN QO'SHIQLARI VA ARIYALARI**

1. "Sizning ayvon" ariyasi. "Nurxon" musikiy dramasidan. T. Jalilov musikasi, K. Yashin she'ri.
2. "Nurxon" ariyasi. "Nurxon"dan. T.Jalilov musikasi, K. Yashin she'ri.
3. "Bir qizga ming oshik". "Gul va lochin" dueti. "Gulisiyoh" dramasidan. Dadali Soatkulov musikasi, Soxib Jamol she'ri.
4. "Feruz" ash'ulasi. "Gulsara" musiqiy dramasidan, T. Jalilov musiqasi, S. Abdulla she'ri.
5. "Ushshoq" ashulasi va "Layli" ariyasi. "Layli va Majnun" dramasidan. T.Sodiqov, Glier musiqasi. Xurshid she'ri.
6. "Farzandim alla". "Farzandim deb" musiqiy dramasidan. Sulton Hayitboev musikasi, O'tkir Rashid she'ri".
7. "Ey, sabo" ariyasi. "Nurxon" musiqiy dramasidan. T. Jalilov musiqasi, K. Yashin she'ri.
8. "Judo" qo'shig'i, "Mashrab" musiqiy dramasidan. Hamid Rahimov, Aziz Tursunov.
9. "Qanchalar" ash'ulasi. "Halima" musiqiy dramasidan. Saidjon Kalonov musikasi, Nabijon Halilov she'ri.



## **HABIBA OXUNOVA KUYLAGAN QO'SHIQLARI**

1. "Alla". Karimjon Mansurov musikasi, Saida Zunnunova she'ri.
2. "Ko'rmasam bo'lmas seni". Karimjon Mansurov musikasi, Aziz Tursunov she'ri.
3. "Ko'ngil". Karimjon Mansurov musikasi, Xayitboy Azimov she'ri.
4. "Namangan". Karimjon Mansurov musikasi, Po'lat Mo'min she'ri.
5. "Odob bilan". Erkin Xolmirzaev musikasi, Abdukahhor Tafforiy she'ri.
6. "So'zlang". Erkin Hamroqulov musikasi, Sanobar Xasanova she'ri.
7. "Yo'llaringning xiloli bo'lay". Erkin Xolmirzaev musikasi, Sanobar Xasanova she'ri.
8. "Sabo bilan". Tel'man Xasanov musikasi, Dushan Fayziy she'ri.
9. "Nayning navosi". Nabijon Xalilov musikasi, Salox Qoriev she'ri.
10. "Muhabbat". T. Jalilov musikasi, K. Yashin she'ri.
11. "Oshnoliging". Xalq kuyi, S. Xasanova she'ri.
12. "O'zing". E. Xolmirzaev musikasi, X. Azimov she'ri.
13. "Bilmasang" E. Xolmirzaev musikasi, O'tkir Rashid she'ri.
14. "Barno yigit". F. Sodiqov musikasi, S. Zunnunova she'ri.

## **HABIBA OXUNOVANING TEATR SAHNASIDA YaRATGAN OBRAZLARI VA IJRO ETGAN ROLLARI**

1. Komil Yashinning "Nurxon" spektaklida Nurxon.
2. Xurshidning "Layli va Majnun" spektaklida Layli.
3. To'xtasin Jalilovning "Farhod va Shirin" spektaklida SHirin.
4. Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" spektaklida Guli.
5. Sobir Abdullaning "Toxir va Zuxra" spektaklida Zuxra.
6. Komil Yashinning "Gulsara" spektaklida Gulsara.
7. Aziz Tursunning "Mashrab" spektaklida Gulrux
8. G'ulom Zafariyning "Halima" spektaklida Halima.
9. Habib Sa'dullaning "Yusuf va Zulayho" spektaklida Zulayho.
10. Yongin Mirzoning "Anvar ila Ra'no" spektaklida Ra'no.
11. Vilyam Shekspirning "Otello" spektaklida Dezdemona
12. Vilyam Shekspirning "Xamlet" spektaklida Ofeliya.
13. F. Shillerning "Qaroqchilar" spektaklida Amaliya.



14. Sergey Mixalkovning “Tarsaki” spektaklida Tanya.
15. V. Kandelakining “Vakt 24 soat” asarida Dino Vasnadze.
16. Sohibjamolning “Gulisiyoh” spektaklida Amal.
17. Shukur Sa'dullaning “Yoriltosh” spektaklida Gulnor.
18. O'tkir Rashidning “Farzand deb” spektaklida Gulnor.
19. Erkin Vohidovning “Oltin devor” spektaklida Dilorom.
20. Sobir Abdullaning “Alpomish” spektaklida Barchinoy.
21. Inoyat Mahsumovning “Navoiy Astrabodda” spektaklida Gulruh.
22. Abdug'ani Abduvalievning “Vasvasa” spektaklida Ona.
23. Umarjon Ismoilovning “Rustam” spektaklida Qumri.
24. “Dabdabali to'y” asarida Nigora
25. Haydar Muhammadning “Toshkentning nozanin malikasi” spektaklida Munavvar, “Gunoh ” badiiy filmida Ona

### ***HABIBA OXUNOVANING GRAMMPLASTINKAGA MUHRLANGAN ASHULALARI***



“Ozod qil”. “Oshiq Farib” dostonidan “Noz etma”. S.Jalil musikasi, Chustiy she'ri “Vafodorimni istaram”. Xalk musikasi, K.Yashin she'ri “Ona yurtim”. S. Jalil musikasi, M. Karimov she'ri “Alla”. K. Mansurov musikasi, 3. Zunnunova she'ri “Ko'rмаган бо'lsам сени”. K. Mansurov musikasi, A. Tursunov she'ri «Sizning ayvon..». T. Jalilov musikasi, K. Yashin she'ri «Barно yigit». F. Sodikov musikasi, S. Zunnunova she'ri “Qistamang”. T. Jalilov musikasi, K. Yashin she'ri “Ey, sabo”. T. Jalilov musikasi, K.Yashin she'ri Xalq cholgu ansamblisi.

### ***HABIBA OXUNOVA HAQIDA DO'STLARI VA YaQINLARI***

XX asrda ona allasini Habiba Oxunovachalik maromiga yetkazib kuylagan boshqa bir qo'shiqchi borligini bilmayman. Albatta, o'nlab, yuzlab xonandalar «Alla»ni mahorat bilan ijro etishgan, lekin har gal bu o'lmas qo'shigni Habiba opadan tinglaganimda, ko'z o'ngimda tunlari bedor ona, Habiba opa siymosidagi mehribon va mushfiq o'zbek ayoli gavdalanaveradi.

*Tura Mirzo, shoir*



*El sevgan iste'dod sohibasi edi*

**Onaxon Tojiboeva, O'zbekistonda  
xizmat ko'rsatgan artist.**

*O'zbekiston xalq artisti Habiba Oxunovaning har bir kuylagan qo'shigi va ariyalari tinglovchilarni, ko'p sonli muxlis va shinavandalarini sehrli jozibasi bilan o'ziga rom etardi.*

**Madaminjon Oxunboev "Navbaxor" ansambl  
musiqa rahbari, pedagog, mohir sozanda**

*Habibaxonning ovozida ta'riflashga ojiz bir dard bor edi. Ex, men uni bilmas ekanman. Uning ovozi ochilib borar, chehrasi yorishib, shu anjumanda bor mahoratini ishga solib, go'yo muxlislari oldida hisobot berardi*

**Avazbek Maximov,  
Uzbekistonda xizmat kursatgan madaniyat xodimi.**

*Yaxshi kuylovchi xofiza ayollar ko'p, lekin Habiba opaga yetadigani kam. Uning bittagina qo'shig'i anchamuncha qo'shiqlarning o'rnini bosadi.*

**Abduhoshim Ismoilov  
Uzbekiston xalq artisti, taniqli sozanda va bastakor.**

*Habiba Oxunova qo'shiq kuylab, bol totdi, ham og'u totdi. Lekin bu dunyoga qo'shiq kuylagani keldi, insonlar qalbini eritib, chaqmoqday chaqnab, uchib ketdi.*

**Muxammad ali Abdukunduzov  
O'zbekiston xalq artisti**

*Habiba Oxunova o'z qushiqlari bilan san'atda burilish yasagan san'atkori.  
Xojiboy Tojiboev, mashhur so'z ustasi.*



*Yaxshi aktyor xech qachon rol tanlamaydi. Habiba Oxunova ham huddi ana shunday aktrisalardan edi. Teatr uning joni dili bo'lgan.*

*Urinboy Nuralisv, Uzbekiston xalk, artisti.*

*Men baralla, ustoz san'atkor Halima Nosirovadan keyin Habiba Oxunovani O'zbekiston bulbuli, deb ayta olaman. U chinakam bulbul edi. SHu bois qo'shiq deb atalmish go'zal bog'-chamanlarda o'zining betakror va nafis qo'shiqlari xalqimizning bebahoh ma'naviy mulkiga aylandi. Bu boylikni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.*

*Kommuna Ismoilova,  
O'zbekiston xalq artisti*

*Namangan teatrini Habiba Oxunovasiz tasavvur etish qiyin.*

*Kamoliddin Rahimov, O'zbekiston xalq artisti*

### *Adabiyotlar*

1. Shokirov, O'. Milliy teatrimiz namryandalari: [aktrisa Habiba Oxunova haqida] / O'. Shokirov /Toshkent Islom Universiteti.- 2002.- B. 179-180.
2. Xabiba Oxunova // O'zbekiston milliy entsiklopediyasi 6-jild. Solnoma-To'ytepa /tahrir hayatı: M. Aminov [va boshq.].- Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.- B. 67.
3. Bulbulnafas xofiza /O'zbekiston xalq artisti, mashhur xonanda va aktrisa Habiba Oxunova //Andijon san'at fidoyilari.- Andijon.- 2017.- B.
4. Holimni so'rmas hech kim [Matn]: Uzbekiston xalq artisti X,abiba Oxunova xotirasiga bag'ishlanadi /tuzuvchi Muhammadali Mirabdullaev.- Toshkent: "Navro'z", 2019.- 92 b.
5. Asqarov, M. Xalqimiz sevgan janr [san'at fidoyilari] / Mamat Asqarov //Sovet O'zbekistoni.- 1983.- №5.- B. 4.



*Солиева, Д. Булбулнафас хофиза : [Ўзбекистон халқартисти Хабиба Охунова ижоди] / Диором Солиева.- 2023.- 13 б.*